

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Rektori M.K. Polatov

28.09.2024 yil

Ro'yxatga olindi: № 10-09-17

2024 yil "29" avgust

**MOLIYA BOZORI**

**O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

**Ta'lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv

**Ta'lim yo'nalishi:** 60412500 – Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Fan/modul kodi MBMT 1708		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 5	Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Moliya bozori	90	90	180
2	<b>I. Fanning mazmuni</b> Fanni o'qitishdan maqsad – moliya bozorining iqtisodiy mohiyati, vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va modellari, pul bozori xususiyatlari va moliya bozori shakllanishidagi ahamiyati, aksiyalar bozorining o'ziga xos xususiyatlari va amal qilish mexanizmi, obligatsiyalar bozorining o'ziga xos xususiyatlari va savdo mexanizmi, davlat qimmatli qog'ozlar bozori amal qilish shart-sharoitlari, hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozorining moliya bozori boshqa sektorlari bilan bog'liqligi, ipoteka qimmatli qog'ozlar bozori muomalasi tartibi, xorijiy valyutalar bozorining moliya bozorida tashkiliy jihatlar, kriptovayutalar bozorining ishlash mexanizmi, qimmatbaho metallar va toshlar bozori xususiyatlari, moliya bozorining indikatorlari va indekslari, moliya bozori risklari va ularni baholash, fond birjalari va fond bozori ishtirokchilari faoliyat mexanizmi, markaziy bank va uning moliya bozorida faoliyati, moliya bozorida tijorat banklari va nobank kredit institutlarining ishtiroki, investitsiya va pay fondlarining moliyaviy operatsiyalardagi ahamiyati, moliya bozorida sug'urta tashkilotlari va nodavlat pensiya fondlarining faoliyat mexanizmi, moliya bozorini tartibga solishning iqtisodiy va huquqiy jihatlar bilan yaqindan tanishtirishdan iborat. Fanning vazifasi –aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi, moliya-sanoat guruhlari va transmilliy korporatsiyalar faoliyat mexanizmi, xolding kompaniyalari moliyasi, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar moliyasi, qo'shma korxonalar moliyasi, qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatni tashkil etish, moliyaviy nazorat, moliya bozorida operatsiyalarni yuritish, o'zaro hisob-kitoblarni tashkil etish, korporativ tuzilmalar moliyaviy resurslarini boshqarish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini o'rganishdan iborat.			
3	<b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b> <b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b> <b>1-mavzu. Moliya bozorining nazariy asoslari.</b> Moliya bozorining iqtisodiy mohiyati. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatli jihatlar. Dunyo miqyosida moliya bozorining tashkil etilishi. Moliya bozori ishtirokchilari. Moliya bozori institutlari. Moliya bozorida vositachilar tiplari. Moliya bozorining tarkibiy tuzilishi. Pul bozori. Kapital harakati. Kapital bozori. Qimmatli qog'ozlar bozori. <b>2-mavzu. Moliya bozorining modellari.</b>			

<p>Moliya bozorini modellashtirishning mohiyati va ahamiyati. Moliya bozori modellari. Qimmatli qog'ozlarning bozorda joylashtirish xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish. Bank modeli. Moliya bozorining anglosakson modeli. Autsayderlik modeli. Moliya bozorining islom modeli. Moliya bozori modellari farqli tomonlari.</p> <p>Nemis modelining xususiyatlari. Moliya tizimi. Moliya bozorining alohida xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlarning bozorda joylashtirish xususiyatlari. Bank kreditlari yordamida moliyalashtirish. Mamlakatimiz moliya bozorining rivojlanish modeli va istiqbollari.</p> <p><b>3-mavzu. Pul bozori</b></p> <p>Pul bozorining iqtisodiy mohiyati. Pul bozorining vujudga kelishi. Pul bozorining qo'llanish xususiyatlari. Pul bozori ishtirokchilari. Davlat, tijorat banklari, korxonalar va boshqalar pul bozori ishtirokchisi sifatida. Pul bozori instrumentlari: davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari, qayta sotib olinuvchi shartnomalar, depozit sertifikatlari, tijorat qog'ozi va boshqalar. Davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarining diskont stavkalari. Pul bozori instrumentlari daromadlilik va risklilik darajasi. Respublikamizda pul bozori amal qilish mexanizmi. Pul bozorida qisqa muddatli kreditlarning ajratilish tartibi.</p> <p><b>4-mavzu. Obligatsiyalar bozori</b></p> <p>Obligatsiyalar moliya bozorining muhim instrumenti. Obligatsiyalar emitentlari. Obligatsiyalar tasnifi. Davlat obligatsiyalari. Munitsipal obligatsiyalar. Korporativ obligatsiyalar va ularni muomalaga chiqarish shartlari. Xorijiy obligatsiyalar. Muddatiga ko'ra obligatsiyalar turlari. Joylashtirish shakliga ko'ra obligatsiyalar turlari. Kupon to'lovlariga ko'ra obligatsiyalar turlari. Ta'minlangan va ta'minlanmagan obligatsiyalar. Konvertatsiyalanuvchi obligatsiyalar. Obligatsiyalar qiymati va daromadlilik. O'zbekiston obligatsiyalar bozorida holat.</p> <p><b>5-mavzu. Aksiyalar bozori</b></p> <p>Aksiyalar va ularning qo'llanish xususiyatlari. Oddiy va imtiyozli aksiyalar. Konvertatsiyalanuvchi imtiyozli aksiyalar. Aksiyalar aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining asosi sifatida. Aksiyalar bozori o'ziga xos xususiyatlari. Aksiyalar emitentlari. Aksiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish. Aksiyalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish. Aksiyalarni joylashtirish. Aksiyalarni qaytarib sotib olish. Aksiya kursi. Aksiyalar nominal qiymati va bozor bahosi. Aksiyalar daromadlilik. O'zbekiston aksiyalar bozori holati.</p> <p><b>6-mavzu. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori</b></p> <p>Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy mohiyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar moliya bozori instrumentlari sifatida. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning funktsiyalari. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar turlari. Forvard shartnomalari. Fyuchers shartnomalari va turlari. Opcion shartnomalari. Opcionlar turlari. Amerika opsiyonlari. Evropa</p>	
--	--



optionslari. Optionslar bo'yicha bazaviy aktivlar. Svoplar iqtisodiy mohiyati. Svoplar turlari. Valyuta svopi qo'llanish xususiyatlari.

#### **7-mavzu. Ipoteka qimmatli qog'ozlar bozori**

Ipoteka. Ipoteka krediti. Ipoteka krediti. Ipoteka qimmatli qog'ozlari. Ipoteka va ipoteka kreditlash amaliyotini moliyaviy ta'minlash. Ipoteka qimmatli qog'ozlari tasnifi va tavsifi. Ipoteka obligatsiyalarini muomalaga chiqarish va joylashtirish.

Ipoteka bozori modellari va qo'llanish xususiyatlari. An'anaviy model (bitta bosqichli, evropa modeli) o'ziga xos xususiyatlari. Ipoteka bozorining ikki bosqichli amerika modeli amal qilish mexanizmi. Ssuda-jamg'arma modeli qo'llanilishi.

Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda ipoteka bozori amaldagi holati.

#### **8-mavzu. Xorijiy valyuta bozori**

Xalqaro valyutalar bozori vujudga kelishiga ob'ektiv zarurat. Xorijiy valyutalar bozori tashkiliy jihatlar. Valyuta ayirboshlash kurslari va ularni aniqlash. Xalqaro valyuta bozorida ayirboshlash kurslarining belgilanishi. FOREX operatsiyalari. FOREX afzalliklari va kamchiliklari. Valyuta bozorida savdoni amalga oshirish tartibi. Valyuta zaxiralari.

#### **9-mavzu. Qimmatbaho metallar bozori**

Qimmatbaho metallar bozori xususiyatlari. Valyutalar bo'yicha oltin standart bekor qilingacha qimmatbaho metallar bozori rivojlanishi. Qimmatbaho metallar bozori ishtirokchilari: qazib oluvchi sanoat korxonalari, qayta ishlovchi sanoat korxonalari, birjalar, investorlar, banklar, professional vositachilar. Oltin bozori amal qilish mexanizmi. Xalqaro oltin bozorlari markazlari. Qimmatbaho metallar savdosida hosilaviy instrumentlar qo'llanilishi. Oltin bo'yicha svoplar turlari: vaqt bo'yicha svop (moliyaviy svop), metallning sifati bo'yicha svop, joylashgan joyiga ko'ra svop. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari sharoitida oltin savdosi.

#### **10-mavzu. Davlat qimmatli qog'ozlar bozori.**

Davlat qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiy mohiyati va qo'llanish xususiyatlari. Davlat qimmatli qog'ozlari turlari. Davlat korxonalarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriluvchi operatsiyalari. Davlat obligatsiyalari. Suveren evrobondlar. Davlat qimmatli qog'ozlarining daromaliligi va risklilik darajasini baholash.

#### **11-mavzu. Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori**

Xalqaro qimmatli qog'ozlar iqtisodiy mohiyati va qo'llanish xususiyatlari. Xalqaro qimmatli qog'ozlar turlari. Xalqaro aksiyalar va obligatsiyalar. Evroaksiyalar. Evroobligatsiyalar. Qisqa muddatli evroqog'ozlar. Evrodepozit sertifikatlar. Depozitar tilxatlar. Amerika depozitar tilxatlari. Global depozitar tilxatlar. Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori amal qilish mexanizmi. Xalqaro qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilari. Xalqaro qimmatli qog'ozlari chiqarishda emitentga qo'yiladigan talablar. Xalqaro qimmatli qog'ozlar

afzalliklari va kamchiliklari. Mamlakatimizdagi emitentlar tomonidan xalqaro qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqarish.

#### **12-mavzu. Islom qimmatli qog'ozlar bozori.**

Islom moliyasi mohiyati. Islom qimmatli qog'ozlari. Mushoraka (sharikchilik) asosida moliyalashtirish. Sukuk orqali kapital jalb qilish. Mamlakatimizda islom moliya bozorini rivojlantirish borasida qilinayotgan ishlar. Islom moliya bozori institutlari. Halqaro Islom Moliya Bozori (IIFM).

#### **13-mavzu. Moliya bozorini tartibga solish**

Moliya bozorini tartibga solishga ob'ektiv zarurat. Moliya bozorini tartibga solish usullari. Moliya bozorida o'zini o'zi tartibga solish. Moliya bozorini davlat tomonidan tartibga solish. Moliya bozorini tartibga solishda davlatning funksiyalari. Mamlakatimizda moliya bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organlari. Moliya bozorini tartibga solishda megaregulyator qo'llanilishi. Moliya bozorini tartibga solish bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya tajribalari.

#### **14-mavzu. Moliya bozori tahlili**

Moliyabozoritahlilining tashkiliy xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlar tahlili. Moliya bozori fundamental tahlil va e'tibor qaratiladigan jihatlar. Fundamental tahlilga ta'sir etuvchi omillar. Emitent joriy moliyaviy holati fundamental tahlili. Moliya bozori texnik tahlili. Moliya bozori tahlilida trendlar. Yapon shamlari turlari va modellari. Ayiqlar va buqalar jangi. Bozordagi o'zgaishlar dinamikasi. Pandemiya sharoitida moliya bozordagi o'zgarishlar tahlili

#### **15-mavzu. Moliya bozori risklari va portfelni boshqarish**

Moliya bozori risklari: mohiyati, asosiy turlari va baholash usullari. Bozor risklari. Fond riski. Foiz riski. Valyuta riski. Tizimli risk va uni aniqlash indikatorlari. Portfel nazariyasi: Markovitsgacha va undan keyingi baholash usullari. Indeksiga bog'liq portfel samaradorlik mezonini. Moliya bozori risklarini pasaytirish va oldini olish imkoniyatlari.

#### **16-mavzu. Fond birjalari**

Fond birjasi funksiyalari va tashkiliy tuzilmasi. Fond birjasi faoliyat printsiplari. Fond birjasi infratuzilmasi va birja savdolari ishtirokchilari. Fond birja savdolari mexanizmi. Birja auksioni turlari.

Investitsiya vositachisi, investitsiya maslahatchisi, investitsiya fondi, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi, tranfer-agent, qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi, dilerlar, market-meykerlar va brokerlar. Qimmatliqog'ozlar depozitariysi faoliyat mexanizmi. Toshkent RFB. Elsis-Savdo.

Hisob-kitob kliring palatasi (HKP) instituti vaziflari. Kliring. Kliring elektron tizimi. Fond bozori professional ishtirokchisi sifatida fond birjasidagi



faoliyati. Savdolari tashkil etish va amalga oshirish. Faoliyatining xuquqiy asoslari.

#### **17-mavzu. Moliya bozorida banklar va nobank kredit institutlari**

Moliya bozorida banklarning ishtiroki. Tijorat banklari emitent sifatida. Banklar tomonidan muomalaga chiqariladigan moliyaviy intrumentlar. Banklar moliyaviy vositachilar va savdo tashkilotchilari sifatida. Banklarning faol investor sifatidagi faoliyati. Moliya bozorida nobank kredit institutlari. Pul bozorida nobank kredit institutlari faoliyat mexanizmi. Mikrokredit tashkilotlari va lombardlarning moliya bozorida faoliyati xususiyatlari.

#### **18-mavzu. Investitsiya va pay fondlari**

Investitsiya fondlarining iqtisodiy mohiyati va yuzaga kelishi. Investitsiya fondlarining bozor sharoitidagi ahamiyatli jihatlari. Xorijiy amaliyotda investitsiya fondlari tashkiliy tuzilmasi. Mamlakatimizda kollektiv investitsiyalash amaliyotining tashkiliy-huquqiy asoslari. Investitsiya fondlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Investitsiya fondlari investitsiya portfelini diversifikatsiyalash. Mamlakatimizda investitsiya fondlari faoliyatining amaliy jihatlari. Pay fondlari tashkiliy jihatlari va faoliyat tartibi.

#### **19-mavzu. Moliyaviy texnologiyalar mohiyati: yuzaga kelish shartsharoitlari va rivojlanish istiqbollari**

Moliyaviy texnologiyalar pul oqimlarini boshqarishga qaratilgan raqamli texnologiyalar. Fan predmeti raqamli texnologiyalar vositasila amalga oshiriladigan moliyaviy munosabatlarni o'rganishdir. "Moliyaviy texnologiyalar" fanining maqsadi talabalarning iqtisodiyot tarmoqlarida moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishi borasidagi bilim olishlarini ta'minlashdir. "Moliyaviy texnologiyalar" fanining vazifalari: iqtisodiyot tarmoqlarida moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishini o'rganish; raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalarning rolini o'rganish va hokozolar. Moliyaviy texnologiyalar mazmun-mohiyati. Moliyaviy texnologiyalar yuzaga kelishiga ob'ektiv zarurat. Moliyaviy texnologiyalar paydo bo'lishini taqozo qilgan jihatlar. Moliyaviy texnologiyalar rivojlanish bosqichlari. Raqamli texnologiyalarning moliya sohasiga joriy etilishi afzalliklari va muammoli jihatlari.

#### **20-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar roli**

To'rtinchi sanoat inqilobi. Raqamli texnologiyalar. Iqtisodiyotning raqamlashuvi va uning mamlakatlar taraqqiyotiga ta'siri. Raqamli platformalar. Iqtisodiy raqamli platformalar. Ijtimoiy raqamli platformalar. Boshqaruv raqamli platformalari. Elektron hukumat. Elektron hujjat aylanishi. Elektron raqamli imzo. Raqamli iqtisodiyot mazmun-mohiyati. Raqamli iqtisodiyot mahsulotlari. Global raqobat sharoitida raqamli iqtisodiyot

afzalliklari va ustuvorliklari. Raqamli iqtisodiyot muammolari. Milliy doirada raqamli iqtisodiyot ko'lamini. Xalqaro doirada raqamli iqtisodiyot amal qilishi. Ta'limda raqamli texnologiyalar.

#### **21-mavzu. Moliya bozorida intellektual tizimlar**

Moliya bozorlarida moliyaviy texnologiyalardan o'rni, moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi, mobil ilova dasturlari, veb platformalari, moliyaviy xizmatlar sohasini rivojlantirishda intellektual tizimlardan foydalanish istiqbollari.

Mobil xamyonlarning afzalliklari, moliyaviy texnologiyalarda mobil pul o'tkazmalarining salmog'i. An'anaviy pul o'tkazmalari va mobil pul o'tkazmalarining farqli tomonlari va ustunliklari, mobil xamyonlarning moliya va bank xizmatlari sohasidagi istiqbollari, PayPal, Square Cash, Google Wallet, Guiabolsa.

Veb brauzerlari orqali bank xizmatlarini amalga oshirish, mobil dastur ilovalari orqali bank hisobvaraqlarini yuritish, Masofaviy bank tizimining ahamiyati, mobil bankning an'anaviy bankdan afzalliklari, BBVA, Wells Fargo, Santander onlayn va mobil banking platformalari. P2P pul o'tkazmalari haqida tushuncha va an'anaviy pul o'tkazmalaridan farqli tomonlari, mobil va raqamli xamyonlar orqali P2P pul o'tkazmalari, transfer bilan shug'illanuvchi fintex kompaniyalari, P2P o'tkazmalarining afzalliklari va istiqbollari, WorldRemit, TransferWise, Remitly.

#### **22-mavzu. Kriptovalyutalar bozori va blokcheyn texnologiyalar**

Kripto aktivlar. Kriptovalyuta – raqamli valyuta sifatida. Kriptovalyutalarning iqtisodiy mohiyati va yuridik statusi xususidagi bahsli holatlar. Kriptovalyuta turlari. Kriptovalyutalar qo'llanish xususiyatlari. Kriptovalyutalar bilan operatsiyalar: sotib olish va sotish. Blokcheyn texnologiyalari. Mayning. Bitcoin. O'zbekistonda kriptoaktivlar muomalasini tashkil etish. Blokcheyn texnologiyalar tarixi, blokcheyn raqamli reestr, blokcheyn loyixalarini moliyalashtirish, blokcheyn texnologiyalarining istiqbollari, kriptovalyutalarning afzalliklari va kamchiliklari, kriptovalyutalarning istiqbollari.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Moliya bozorining nazariy asoslari.
2. Moliya bozorining modellari.
3. Pul bozori
4. Obligatsiyalar bozori
5. Aksiyalar bozori
6. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori
7. Ipoteka qimmatli qog'ozlar bozori

8. Xorijiy valyuta bozori
9. Qimmatbaho metallar bozori
10. Davlat qimmatli qog'ozlar bozori.
11. Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori
12. Islom qimmatli qog'ozlar bozori.
13. Moliya bozorini tartibga solish.
14. Moliya bozori tahlili
15. Moliya bozori risklari va portfelni boshqarish
16. Fond birjalari
17. Moliya bozorida banklar va nobank kredit institutlari
18. Investitsiya va pay fondlari
19. Moliyaviy texnologiyalar mohiyati: yuzaga kelish shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari
20. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar roli
21. Moliya bozorida intellektual tizimlar
22. Kriptovalyutalar bozori va blokcheyn texnologiyalar
23. Robo-maslahatchi (robo-advisor)
24. Crowdfunding va muqobil kapital
25. Moliyaviy tashkilotlarda moliyaviy texnologiyalar xususiyatlari va ularni joriy etish

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Moliya bozorida amalga oshiriladigan bitim va operatsiyalar;
2. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati va o'rni;
3. Bazaviy (qarz va ulush munosabatlarini ifodalovchi) qimmatli qog'ozlar;
4. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar (derivativlar);
5. Moliya bozori indikatorlarini baholash;
6. Sug'urta va pensiya fondlarining moliya bozorlaridagi faoliyati;
7. Banklarning moliya bozorlaridagi faoliyati;
8. Investitsiya institutlarining moliya bozorlaridagi faoliyati;
9. Davlat moliya institutlarining moliya bozorlaridagi faoliyati va roli;
10. Xalqaro moliya institutlarining moliya bozorlaridagi faoliyati va roli;
11. Kriptovalyutalar bozori: iqtisodiy ahamiyati va rivojlanish bosqichlari;
12. Fond birjalarining faoliyati;
13. Elektron savdo tizimlarining faoliyati;
14. Moliya bozori risklari, ularni baholash va boshqarish;
15. Investitsion portfellarni shakllantirish, baholash va boshqarish;
16. Moliya bozorini davlat tomonidan tartiblashtirish (muvofiglash-tirish va nazorat) qilish;
17. O'zini o'zi muvofiglashtiruvchi institutlar faoliyati;
18. O'zbekistonda moliya bozorini muvofiglashtirish va nazorat qilish mexanizmlari;
19. Moliyaviy globallashtirishda xalqaro moliya bozorlarining roli;

20. Moliya bozori va korporativ boshqaruvning o'zaro bog'liqligi.
21. Iqtisodiyotning raqamlashuvi
22. Raqamli iqtisodiyot mazmuni va ko'lamining kengayib borishi
23. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar roli
24. Moliyaviy texnologiyalar mohiyati: yuzaga kelish shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari
25. Nomoliyaviy sektor tashkilotlarida qo'llaniladigan moliyaviy texnologiyalar turlari
26. Moliyaviy tashkilotlarda moliyaviy texnologiyalar xususiyatlari
27. Moliyaviy texnologiyalar qo'llanilish samaradorligini baholash
28. Moliyaviy tashkilotlarda moliyaviy texnologiyalar joriy etish
29. Moliyaviy texnologiyalar qo'llanish doirasining iqtisodiyot globallashtirishiga ta'siri
30. Raqamli iqtisodiyotda ma'lumotlarni tahlil qilish va uning texnologiyalari
31. Moliya bozorida intellektual tizimlar
32. Zamonaviy bank texnologiyalari
33. Iqtisodiyotda yuqori hisoblash va uzatish texnologiyalari
34. Biznes tahlili va boshqarish texnologiyalari
35. Moliyaviy texnologiya sohalari
36. Kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalar
37. Moliyaviy xizmatlar uchun BigData va bulutli texnologiyalar
38. Raqamli va mobil hamyonlar
39. Mobil savdo nuqtalari (MPOS)
40. Intellektual tizimlar orqali moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish
41. P2P texnologiyalar
42. Elektron valyuta birjalari (FX Fintech)
43. Investitsiyani boshqarish xizmatlari
44. Tezkor savdolar (HFT)
45. Aktivlarni tokenlashtirish
46. Moliya bozorida ikkiyoqlama savdolar (copy trading)
47. Robo-maslahatchi (robo-advisor)
48. Crowdfunding va muqobil kapital
49. Onlayn va mobil banking
50. Onlayn sug'urta texnologiyalari

#### V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Moliya bozorining iqtisodiy mohiyati va asosiy tushunchalari investitsiyaning turlari va shakllari;
- Moliya bozori modellari;
- moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishi, moliya bozori institutlari faoliyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, me'yoriy-huquqiy hujjatlarini bilishi va ularni qo'llay olishi;



	<ul style="list-style-type: none"> <li>– moliya bozorida moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishini davlat tomonidan tartibga solishi;</li> <li>– moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishi borasidagi muammolar va ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar bera olishi;</li> <li>– kriptovalyutalar muomalaga chiqarish va ular muomalasini tashkil etish;</li> <li>– fond birjasi va birjadan tashqari bozorlarda elektron savdo tizimlari orqali qimmatli qog'ozlar savdolarida ishtirok eta olish va savdolari amalga oshirish haqida <i>tasavvur va bilinga ega bo'lishi</i>;</li> <li>– moliyabozorining indikatorlari va indekslarini hisoblash;</li> <li>– moliya bozori risklarini baholash va boshqarish;</li> <li>– fond bozori faoliyat mexanizmini tashkil etish;</li> <li>– moliya bozorida tijorat banklari va nobank kredit institutlarining ishtirokini yo'lga qo'yish;</li> <li>– investitsiya va pay fondlarining moliyaviy operatsiyalarini tashkil etish;</li> <li>– raqamli bank xizmatlarini joriy eta olish va ko'rsata olish;</li> <li>– sug'urta kompaniyalarida onlayn sug'urta xizmatlarini joriy eta olish;</li> <li>– elektron to'lov tizimlaridan foydalana olish va xizmat ko'rsatish;</li> <li>– elektron pul o'tkazmalari tizimidan foydalana olish va xizmatlar ko'rsatish;</li> <li>– moliya bozorida sug'urta tashkilotlari va nodavlat pensiya fondlarining yo'lga qo'yish;</li> <li>– elektron savdo tizimlarida savdolari yo'lga qo'ya olish;</li> <li>– elektron investitsion vositachilik xizmatlarini ko'rsata olish;</li> <li>– valyuta birjasida elektron tarzda valyuta savdolarini amalga oshira olishi;</li> <li>– tovar-xom ashyo birjasida onlayn xaridlar va sotuvlarni amalga oshira olishi va savdolar bo'yicha xizmatlar ko'rsata olishi;</li> <li>– tijorat banklarida moliyaviy operatsiyalar bo'yicha onlayn xizmatlardan foydalana olishi va xizmatlar ko'rsatishi; qimmatbaho metallar bozori va unda savdo bo'yicha qarorlar qabul qilish malakasiga <i>ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>
5	<b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• blits-so'rov;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar namoyishi;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
6	<b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b> Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testni topshirish.
7	<b>Asosiy adabiyotlar:</b>

	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Elmirzayev S.E. va boshqalar. "Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar". Darslik. -T.: "DIADEMA NUR SERVIS", 2023. -412 b.</li> <li>2. M.P. Eshov, A.U. Burxanov, X.X. Xudoyqulov, "Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar", Toshkent 2021, -448 b.</li> <li>3. Зайналов Ж.Р., Ходжаев Э.Н., Хусанов Б.Ш., Рузibaева Н.Х. ва бошқалар "Молия бозори" Тошкент, "Иктисод-Молия" 2020. -216 б.</li> </ol> <b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. А. Табернакулов, Я. Койфман. Блокчейн на практике. – М.: «Альпина Паблишер», 2019 – 260 б.</li> <li>2. А. А. Лебедева. Цифровые технологии в финансовой сфере (на примере криптовалют). Неизбежность или осознанный выбор Российской Федерации: монография. – Москва: Проспект, 2019. – 120 с.</li> <li>3. S.G'ulomov va boshq. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 447 b.</li> <li>4. Mark Graham. Digital economies at global margins. – USA: International Development Research Centre, 2019. – 390 p.</li> <li>5. Монография. – Ташкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. – 352 с.</li> <li>6. Барберис Я., Чишти С. Финтех: путеводитель по новейшим финансовым технологиям – М: Альпина Паблишер, 2017. – 630 с.</li> </ol> <b>Axborot manbaalari:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>11. <a href="http://www.cmda.uz">http://www.cmda.uz</a> – ("O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi" rasmiy veb sayti);</li> <li>12. <a href="http://www.mf.uz">http://www.mf.uz</a> – ("O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi" rasmiy veb sayti);</li> <li>13. <a href="http://www.soliq.uz">http://www.soliq.uz</a> – ("O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi" rasmiy veb sayti);</li> <li>14. <a href="http://www.stat.uz">http://www.stat.uz</a> – ("O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi" rasmiy veb sayti);</li> <li>15. <a href="http://www.uzse.uz">http://www.uzse.uz</a> – ("Toshkent" Respublikasi Fond birjasining rasmiy veb sayti);</li> <li>16. <a href="http://www.cbu.uz">http://www.cbu.uz</a> – ("O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki" rasmiy veb sayti);</li> <li>17. <a href="http://www.cer.uz">http://www.cer.uz</a> – ("O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tadqiqot markazi" rasmiy veb sayti);</li> <li>18. <a href="http://www.ziyonet.uz">http://www.ziyonet.uz</a> – (Ta'lim portali)</li> <li>19. <a href="http://www.lex.uz">http://www.lex.uz</a> – (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi)</li> </ol>
8	Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv uslubiy kengashining 2024-yil 29.08dagi -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ <u>FD-09-17</u> )
9	<b>Fan/modul uchun ma'sul:</b> E.N.Xodjayev – SamISI "Moliya" kafedrası professori K.B.Uzakova – SamISI "Moliya" kafedrası assistenti

10	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>I.M.G'aniyev</b> – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.n., dotsent</p> <p><b>N.X.Ruzibayeva</b> – Investitsiya va innovatsiyalar kafedrası dotsenti</p>
----	--